

“BOBURNOMA” ASARINING XALQ OG‘ZAKI IJODIDAGI UYG‘UN XUSUSIYATLARI

Ahmadova Azimaxon Behzod qizi

Farg‘ona Davlat universiteti akademik litseyi o‘quvchisi

E-mail: akhammadovaazima627@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga masub bo‘lgan “Boburnoma” asarimimg xalq og‘zaki ijodida tutgan o‘rni va uyg‘un xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Folklor san’ati, klassik adabiyoti, “Boburnoma”, “Badoe’ ul-vaqoe”, “Qabusnoma”, “Majmua’ un-navodir”

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о месте и гармонических особенностях произведения Захириддина Мухаммада Бабура «Бабурнома» в народном творчестве.

Ключевые слова: фольклорное искусство, классическая литература, “Бабурнома”, “Бадоэ ул-вакае”, “Кабуснома”, “Маджмуа ун-наводир”.

ABSTRACT

This article talks about the place and harmonious features of the work “Boburnoma” written by Zahiriddin Muhammad Babur in the folk art.

Key words: folklore art, classical literature, “Boburnoma”, “Badoe’ ul-vaqae”, “Qabusnoma”, “Majmua’ un-navodir”.

O‘zbek klassik adabiyotining atoqli namoyandalaridan Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining qarama-qarshilikli, murakkab va qisqa hayotida anchagina asarlar yaratgan bo‘lsa-da, ularning hammasi bizga yetib kelgan emas. Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan va o‘sha davr o‘zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo‘lgan “Boburnoma” asaridir.

Bu asar nafaqat tarixiyligi balki, xalq og‘zaki ijodi manbalariga boyligi bilan ham alohida ahamiyatlidir.

Badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli – xalq og‘zaki ijodi (folklor) hisoblanadi. Muallifning noma’lumligi, yillar mobaynida turli aytimchilar tomonidan sayqallanib, takomillashib, mukammal shaklga ega bo‘lish xalq og‘zaki ijodi namunalariga xos asosiy belgilardir. Og‘zaki ijod har qanday yozma adabiyotga tayanch vazifasini bajargan. Yozma adabiyotning eng muhim yutug‘i shundaki, u unutilmaydi va keying avlodlarga o‘zgarmay yetib boradi. Bu ikkala adabiyot turi doimo yonma-yon yashaydilar va bir-birining rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Belinskiiy aytganidek: “Adabiyot doimo ommaviylikka suyanadi, o‘z tasdig‘ini jamiyat fikridan oladi...”¹

“Xalq hayoti bilan mustahkam bog‘langan adabiyot har bir xalqning o‘ziga xos urf-odatlarini, ruhiyatini, fikrlash, yashash tarzini akslantirishi tabiiydirki, bu – adabiyotning milliyligini vujudga keltiradi”²

Boburning “Boburnoma” asarida xalq tilidan olingan va mashaqqatli hayoti davomida o‘zi orttirgan tajribalarga asoslangan hikmat va maqollar juda ko‘p. Muallif ularni asarda o‘z o‘rnida mohirona qo‘llay olgan. O‘z millatini urf-odati bilan birga afg‘on, eron, hindlarning rasm-rusumlari-yu, xalqona ijodlarini qadrlagan Bobur “Boburnoma” asarida batafsil yoritishga harakat qilgan. Ayrimplari forsiy ruboiy shaklida berilgan bo‘lsa-da, mazmunan hikmatni o‘z ichiga olgan umummiliy meros hisoblanadi. Quyida shu baytlar mazmuni va hikmatlar sharhi berilgan:

1. Jahongirlik to‘xtab turmaydi, kim yaxshi tirishsa, jahon o‘shaniki bo‘ladi, hayotda har bir narsaning to‘xtashi mumkin, ammo podshohlik (ishi)to‘xtamaydi.^[320]

2. Tashvishlanish, hovliqish vajsizdir. Xudoning taqdiri nima bo‘lsa, shundan boshqasi bo‘lmaydi. Bu ish oldindan bo‘lgani uchun, bu to‘g‘rida hech nima demaslik kerak.^[307]

3. Agar oyog‘ing band bo‘lsa, rizoni oldinga qo‘y, agar tanho suvori bo‘lsang, o‘z boshingcha bor, ya’ni jahonga bog‘langan bo‘lsang, boshingga kelgan har narsaga rozi bo‘l, agar hech narsaga bog‘lanmagan kishi bo‘lsang, yo‘lingdan qolma, keta ber.^[321]

Bobur azaliy taqdirni nazarda tutib, inson qismati oldindan belgilangani va bu qismatga odam xohlasa xohlamasa bo‘ysunishi shart ekanligini ta’kidlaydi. U hamisha atrofidagilardan o‘zini yuqori tutib dimog‘lanmadidi. Aksincha, uni tanti va oliyjanobligi uchun bek-u navkarlar hurmat qilib, ortidan ergashdilar.

4. Sho‘r tuproq yerda sunbul bitmaydi, unday yerda umid urug‘ini nobud qilma. Shunga o‘xshash, yomonlarga yaxshilik qilish va yaxshilarga yomonlik qilish ham o‘rnida bo‘lmaydi.^[177]

5. Do‘sstar bilan birgalikdagi o‘lim to‘ydir.^[175]

¹ V. G. Belinskiiy. Adabiy orzular. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977.

² Umurov H. Adabiyot qoidalari. Toshkent – 2010. 162-bet.

Bobur Havoli Qutiy g‘orida shu fikrga keladi. U yerda qalin qor uyumidan o‘tib, bir g‘or og‘zida tunaydi. Qulog‘ini sovuq oldiradi. Qor kurab safdoshlari qatorida yo‘l ochib boradi.

6. Shuhrat bilan yodlanishni, hakimlar, ikkinchi umr demishlar.^[168]

7. Yaxshi kishining xonasidagi yomon xotin shu dunyoning o‘zidayoq uning do‘zaxidir.^[152]

Husayn Boyqaro haqida so‘zlarkan, “avval olg‘on xotuni Beka Sultonbegim edi, Sanjar mirzo Mavriyning qizi edi. Badiuzzamon mirzo mundin tug‘ub edi. Ko‘p kajxulq edi. Sulton Xusayn mirzoni ko‘p og‘ritur edi. Kajxulqlig‘idin mirzo batang keldi, oxir qo‘ydi va xalos bo‘ldi, ne qilsun haq mirzo jonibi edi... Tengri hech musulmong‘a bu baloni solmag‘ay”.

8. Yengiltak achchig‘langanda tig‘ bilan qo‘lin kesar, so‘ngra afsus qo‘li orqasin tish bilan chaynar.^[80]

Bu misra shoir Binoiy ruboysidan keltirilgan bo‘lib, Bobur ikkisi mushoira aytadi. Bobur bu mushoirani “Boburnoma” asariga kiritadi.

9. Ishlar o‘z vaqtida bajarilishi kerak: vaqtida bajarilmagan ish sust bo‘ladi, sust.

Bu huddi o‘zbek xalq maqolidagi “Qolgan ishga qor yog‘ar” degandek. Chunki o‘z vaqtida bajarilmagan ishda natija bo‘lmaydi.

10. Eshittimki, qutluq tabiatli Jamshid bir bulog‘ boshida tosh ustiga shunday deb yozgan ekan: bu bulog‘ tepasida bizlar singari ko‘p kishilar kelib o‘lturdilar, ketdilar va yo‘q bo‘ldilar. Olamni mardlik va zo‘rlik bilan oldik, lekin o‘zimiz bilan go‘rga eltmadik.

Obburdan quyiroq bir chashma tushgan bo‘lib, shu chashma yonidagi toshga Bobur forsiy baytni bittiradi.

11. May lazzatini mast bulur, xushyorlarga bundan nima bahra.

Bobur bir uzum navini angur deyishlarini yozadi. Undan tayyorlangan chog‘irlar juda xushtam bo‘lib, yaxshi mast qiladi.

12. Umr bo‘yi o‘zimni yaxshilik bilan maqtadim, o‘zimni zohid va taqvodor qilib ko‘rsatdim. Ishq kelgach, zohidlik qayda qoldi-yu, yaxshilik nima bo‘ldi? Xudoga shukrki, o‘zimni sinadim. Ushbu hikmat Mironshoh mirzoning nabirasi Kichik mirzo tomonidan bitilgan ruboiydir.

13. Shahar darvozasini yopib bo‘ladi-yu, dushman og‘zini yopib bo‘lmaydi.

14. Yaxshi nom bilan o‘lsam, shu yetadi, menga yaxshi nom kerak, tana esa o‘lim uchundir.^[289]

“Har kimki hayot majlisig‘a kiribtur, oqibat ajal paymonasidan ichgusidir va har kishikim, tiriklik manzilig‘a kelibtur, oxir dunyo g‘amxonasidin kechgusidir. Yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila o‘lg‘on yaxshiroq”.

15. Zug‘m bilan aytilgan so‘z shu darajaga yetkazdiki, qadimiy xonadonlarni vayron qilib yuboradi.^[188]

Bobur Shayboniyxon Xurosonni olgandan so‘ng temuriy shahzodalarining bir nechtasiga maktub yo‘llaydi. Ayrimlari uni qo‘llab-quvvatlaydi, ayrimlari esa loqayd qolaveradi. Ushbu baytni Bobur o‘kinch bilan yozadi.

16. Sen o‘zingga yomonlik qilganni turmushga topshir, turmush sening o‘ch oluvchi xizmatkoringdir.^[181]

Bobur atrofida yaqin odamlaridan tashqari sotqin va xoinlar ham bo‘lganki, yaxshilikning qadriga yetmay, oxir oqibat o‘zlar ham xiyonat tufayli o‘lim topgan. Masalan: Xo‘b Nigorxonimning o‘g‘li Muhammad Xusayn mirzo. Shayboniyxon tomonga qochib o‘tib, Boburdan ko‘p shikoyatlar qiladi, natijada Shayboniyxon uni o‘ldirib yuboradi.

17. Yengilgan safga bir “hay” kifoyadir.^[103]

Bobur Mirzo xalq donoligi bo‘lgan hikmat va maqollardan yaxshigina xabardor. U g‘azallarida ham, “Boburnoma”da ham xalq hikmatlaridan o‘z o‘rnida ishlata olgan. O‘z boshidan toj-u taxt balosini o‘tkazgan Bobur qo‘shin boshqaruvini oson emasligini yaxshi tushunadi. Saf boshqaruvida donolik birinchi o‘rinda turadi.

Bu hikmatlar asosan forsiy baytlar orqali berib borilgan bo‘lib, Bobur ularni ayrimlarini hayotiy tajribasi asosida o‘zi yaratgan. Bobur o‘z hayoti davomida juda ko‘p qiyinchiliklarni ko‘rdi. Bu hikmat va maqollar shu hayotiy tajriba samarasidir. Ammo maqol va hikmatlarni forsiy baytlar orasiga singdirib beradi. Adabiy jarayon va so‘z san’atkorlarining xususiyatlari haqidagi fikrlar tarix, tarixiy-esdalik va nasihatnomalarda ham uchraydi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Zayniddin Muhammad Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nizomiy Aruziy samarqandiyning “Majmua’ un-navodir” asarlarini misol keltirish mumkin.³ Tarixiy asarlarda nasihatlar juda ko‘p uchraydi. Asrlar o‘tsada, hikmatlar o‘z kuchini yo‘qotmay saqlanib kelimoqda. Uning xalq bilan hamohang yashayotgani ham Boburning o‘ziga xos mahoratini ko‘rsatadi. Qadimgi Sharq mumtoz adabiyotshunosligida adabiy-tanqidiy fikrlar sinkretik tarzda(narsaning dastlabki, bir-biridan ajralmagan, qorishiq holatida) mavjud bo‘lgan. “Shu tufayli o‘tmishda adabiy-tanqidiy qarashlar, she‘r va shoirlilik haqidagi mulohazalar tarixiy yodnomalarda, esdalik tipidagi asarlarda, devonlarga yozilgan debochalarda, manoqib holatlarda, kichik lirik janrlardagi asarlarda, dostonlarning maxsus boblarida, tazkiralarda, aruz, qofiya, badoue’ va sanoe’ga doir risolalarda, ba’zan esa ilmi adab deb atalmish ilmlar

³ Хотам Умурев. Адабиёт қоидалари. Тошкент. 2010. 10-бет

turkumiga bag‘ishlangan kitob va lug‘atlarda bayon etilgan”.⁴ “Boburnoma”da “Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she’r aytubdirlarki, hech kim ancha ko‘p va xo‘b aytqan emas”, degan odilona va rostgo‘y xulosaga keladi. Shu o‘rinda yana bir qancha shoirlar ham bo‘lganki, Hirotda oyog‘ingni uzatsang, shoirning orqasiga tegadi,- degan fikrlarni ham qoldiradi. “Boburnoma”ning mavzu ko‘lami juda keng. Yuqorida keltirilgan har bir hikmat yoki baytning ma’lum bir voqealar bilan aloqadorligi bor. Bu hikmatlar orqali Zahiriddin Muhammad Boburning naqadar teran fikrlar va o‘tkir idrok sohibi ekanligiga to‘la ishonch hosil qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. 3.М.Бобур. Бобурнома. Тошкент. 1989.
2. Қиронов Д., Адабиётшуносликка кириш.-Т., 2007
3. Умurov X. Адабиёт қоидалари.-Т.; 2010.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.-Т.;2002.
5. www.ziyonet.Boburnome.uz

⁴ Botir Valixo‘jayev. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. X-XIX asrlar, T.,”O‘zbekiston”, 1993, 9-bet